



## KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

I.Karimov, Qo'qon DU professori, p.f.n.

*Mazkur maqolada texnologiya fani  
darslarida o'quvchilarni kasb  
tanlashga yo'naltirishda o'yin texnologiyalaridan  
foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar yoritilgan.*

Hozirgi paytda yoshlar bilan ishlashda muhim bo'lib turgan muammolardan biri bu ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishdir. Kasbga yo'naltirish – bu ta'lim oluvchi bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, uning tarkibiga bir-birini o'zaro to'ldiruvchi turli xildagi ish usullarini qamrab olishi lozim. Pedagogik usullar bo'yicha quyidagi yo'nalish ishlar olib boriladi. Kasbga yo'naltirishning turli nazariy izohlari orasida xozirgi vaqtda ikkita eng muhim tushunchani ko'rsatish mumkin, bular:

- an'anaviy (diagnostik);
- zamonaviy (rivojlantiruvchi).

An'anaviy (diagnostik) usul kasbga yo'naltirish nazariyasining asosiy vazifasi shaxsda kasbiy moyillikni undagi psixologik xususiyatlar va shaxsiy extiyojlarini solishtirish yo'li bilan aniqlashdan iborat. Bunda asosiy mas'uliyat kasbiy konsultantga yuklanadi. U test o'tkazish yo'li bilan va ulardan olingan natija asosida shaxsni u yoki bu kasbga moyiliigini aniqlaydi. Bu xolda shaxs, ya'ni taxlim oluvchi passiv rolini o'ynaydi.

Zamonaviy (rivojlantiruvchi) usul kasbga yo'naltirish konsepsiyasi bo'lib, bunda shaxs o'z kelajagini aniqlashda faol ishtirok etini nazarda tutadi. Bunda asosiy e'tibor shaxsni turli xil sohalarni egallashi jarayonida undagi rivojlanishni aniqlashga qaratiladi. Kasbga yo'naltirish o'quv-



tarbiyaviy ishlarining qismi sifatida ko'riladi. Kasb tanlashga tayyorgarlik esa shaxsga jamiyat tomonidan ta'sir etuvchi bir tarbiyaviy tizim asosida ko'riladi. Bundan kelib chiqqan holda yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanilishi mumkin, bular:

- axborotli – dasturlar, bukletlar, reklama, agitatsiya va h.;

- ma'rifatli;

- tashkilotlarga ekskursiyalar uyushtirish – bevosita tashkilotlarga borib, ularda ish jarayoni, tartibi va ish yuritiladigan sohalar bilan tanishish;

- kasbga oid filmlar va videoroliklar ko'rish – dars jarayonida yoki ma'lum bir ajratilgan kurslar davomida o'quvchi-yoshlarni kasblar olami bilan tanishtirish maqsadida ularga shu mavzuga oid filmlar va

- videoriliklar qo'yib berish;

- mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil qilish – kasbga yo'naltirish va u bilan

- bevosita ish yuritadigan mutaxassislar, firma va tashkilotlar vakillari bilan

- uchrashuvlar;

- kasbga yo'naltirish kursidan leksiya va dasrlar o'tkazish – kasbga yo'naltiruvchi pedagog, konsultant va psixologlarni jalb qilgan xolda yoshlarga kasbga oid ma'lumotlar taqdim etish, ularda shaxsiy qiziqishlarini savol-davob, test va boshqa turli yo'llar bilan aniqlab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish.

Bugungi kunda yoshlarni ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlarida yuqoridagi metodlardan tashqari quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz

**Kasbga yo'naltiruvchi o'yinlar.** O'yin uslubi turli vaziyatlarni , shu jumladan. Kasbga yo'naltiruvchi axborotlarni izlash hamda tahlil qilishni talab etuvchi holatlarni modellashtirishga imkon beradi. O'yin axborotlar bilan ishlashni qiziqarli mashg'ulotga aylantiruvchi sharoitni yuzaga



keltirishga imkon beradi. O'yinlar orasida quyidagi mashhurlarini aytib o'tish mumkin: "Nima? Qachon?, Qaerda?" Bu o'yinga tayyorgarlik ko'rishda kasbga yo'naltiruvchi mazmundagi savollarni tuzish uchun katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi; "Kasbni top", "Uyushma", "Ochiq firmalar", "Ma'lumotlar manbai", "Aqliy hujum" mashqi. – bular o'quvchilarning tanish kasblar haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Kasb tanlash va rivojlantirish (alohida qiyinchilik va masalalarni hal etish) uchun zarur bo'lgan axborot manbaalarini ajratib olishda ushbu metoddan foydalanish o'quvchilarga ilgari qo'llanmagan uslublarni ko'rish va turli usullarning samaradorligini baholash imkonini beradi. Eslatib o'tish kerakki, bu usullar bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvaliga o'quvchilar tanqidsiz va baholashsiz ma'lumot olishning turli manbalarini ko'rsatib o'tadilar: gazeta materiallari, uchrashuv, axborotlar, bukletlar va boshqalar. Shundan keyingina ular ma'lumot ko'rsatkichlar orqali baholanadi: haqqoniylik, to'liqlik, tezkorlik va boshqalar.

O'zaro tekshiruv (ekspertiza). Uning mohiyati o'quvchilar juftliklarga birlashib bir-birlariga o'zaro ishonch sharti bilan, ketma-ket vazifalarni hal qilish yo'llarini bayon etishdan iborat. Ularni tinglagan "Ekspertlar" esa bu usullarni ma'qullaydi va ularga o'zining qo'shimcha variantlarini taklif etadi.

Atamalarning shaxsiy lug'atini tuzish. Shaxsiy lug'at, kartotekani tuzish, kasbga yo'naltirishga oid tushuncha va atamalarni turlarga ajratish –

kasb tanlash ma'lumotlari asosini tizimlashtirishga imkon beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyot:**

1. "Kasbiy fanlar metodikasi" jurnali. T., 2013-yil. 8-son.
2. Karimov I., Shomirzaev M. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. T.: Universitet, 2020. – 190 b.
3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A, Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: Darslik. T., 2014.